

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING "YERLARNING MELIORATIV
HOLATINI YAXSHILASH TIZIMINI TUBDAN
TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO`G`RISIDA" 2007-YIL 29-OKTABRDAGI
PF-3932-SONLI FARMONIGA QO`SHIMCHA
VA O`ZGARTISHLAR KIRITISH TO`G`RISIDA**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING
FARMONI
19.04.2013 y.
N PF-4533**

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini takomillashtirish va melioratsiya ishlarini moliyalashtirish maqsadida:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" 2007-yil 29-oktabrdagi PF-3932-sonli Farmoniga qo`shimcha va o`zgartishlar ilovaga muvofiq kiritilsin.
2. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. Karimov

**O`zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2013-yil 19-apreldagi
PF-4533-sonli Farmoniga
ILOVA**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
"Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini
tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"
2007-yil 29-oktabrdagi PF-3932-sonli Farmoniga
kiritiladigan qo'shimcha va o'zgartishlar**

1. 4-bandining ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida magistral (viloyatlararo), tumanlararo, xo`jaliklararo ochiq kollektorlar va ulardagi inshootlarni, yopiq gorizontal drenaj tarmoqlarini, vertikal drenaj quduqlarini, meliorativ nasos stansiyalar hamda kuzatuv tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tozalash";

2. 7-bandida:

a) uchinchi xatboshidagi "2008–2012-yillar" so`zlari "2008–2017-yillar" so`zlari bilan almashtirilsin;

b) to`rtinchi xatboshidagi "besh yil" so`zlari "o'n yil" so`zlari bilan almashtirilsin;

v) quyidagi mazmunda beshinchi xatboshi bilan to`ldirilsin:

"2013–2017-yillar mobaynida "O'zmeliomashlizing" Davlat lizing kompaniyasining "Meliomashlizingservis" sho`ba korxonasi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro`yxatlar bo`yicha olib kiriladigan tovarlar, melioratsiya texnikasiga, mashina va mexanizmlarga texnik hamda servis xizmati ko`rsatish uchun xarid qilinadigan ehtiyoj qismlar va butlovchi buyumlar uchun boj to`lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig`imlaridan tashqari) ozod qilinadi".

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to`plami",

2013-yil 29-aprel, 17-son, 221-modda

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi",

2013-yil, 4-son, 115-modda